



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 95 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.




MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozorida o'zgarishlar	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARGA ISHCHI KUCHI OQIMI VA O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR



Tilabova Kumush Farhod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Biznes boshqaruvi fakulteti”, “Jahon iqtisodiyoti va
Xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi”, 2-kurs magistranti
ORCID: 0009-0000-0231-196X

Annotatsiya: Maqolada xalqaro mehnat migratsiyasining kuchayishi va uning O‘zbekiston mehnat bozoriga ta’siri tahlil qilingan. Statistik ma’lumotlar asosida yoshlar, ayollar va katta yoshdagi ishchi kuchi ulushining o‘zgarishlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, 2025-yil uchun rejalashtirilgan bandlik siyosati – kreditlar, ta’lim va xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash orqali ishsizlikni kamaytirish choralari yoritilgan. Maqola mehnat bozorini barqarorlashtirishga oid amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, ishchi kuchi, mehnat bozori, bandlik siyosati, yoshlar bandligi, norasmiy bandlik, demografik o‘zgarishlar.

Abstract: The article analyzes the increase in international labor migration and its impact on the labor market of Uzbekistan. Based on statistical data, changes in the share of youth, women, and older workers are shown. Also, the planned employment policy for 2025 – measures to reduce unemployment through support for loans, education, and the service sector – is highlighted. The article contains practical recommendations for stabilizing the labor market.

Key words: labor migration, labor force, labor market, employment policy, youth employment, informal employment, demographic changes.

Аннотация: В статье анализируется рост международной трудовой миграции и её влияние на рынок труда Узбекистана. На основе статистических данных показаны изменения доли молодёжи, женщин и пожилых работников. Также освещается запланированная политика занятости на 2025 год – меры по сокращению безработицы за счёт кредитования, образования и поддержки сектора услуг. Статья содержит практические рекомендации по стабилизации рынка труда.

Ключевые слова: трудовая миграция, рабочая сила, рынок труда, политика занятости, занятость молодёжи, неформальная занятость, демографические изменения.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari natijasida xalqaro mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodiy va ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotining chuqur transformatsiyalashuvi, mehnat resurslariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi hamda mintaqalararo iqtisodiy nomutanosiblik xalqaro mehnat migratsiyasi oqimlarining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda bu jarayon nafaqat mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga, balki donor va retseptor davlatlar iqtisodiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi bir vaqtning o‘zida ikki tomonlama – ijobiy va salbiy oqibatlariga ega, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ishchi kuchi eksport qiluvchi davlatlar uchun u xorijdan pul



o'tkazmalarining ko'payishi, ichki bozorga bosimning kamayishi kabi afzalliklarni ta'minlasa, ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va demografik muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar oqimi, mehnat huquqlarining buzilishi, migratsion siyosatdagi muvofiqlik yetishmasligi kabi salbiy omillar ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

2025-yil 14-fevral kuni Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari bilan muloqot o'tkazdi. 2030-yilgacha mehnat bozoriga 1 million yosh kirib kelishi kutilmoqda. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yoshlar qo'shilayotgani va bu raqam yil sayin oshib borayotgani qayd etildi, – deb ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada globallashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasining mehnat bozori tarkibidagi o'rnini, uning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarishning dolzarb masalalari tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mehnat – bu inson tomonidan o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ongli, maqsadga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy jihatdan ruxsat etilgan faoliyat bo'lib, u jamiyat uchun foydali bo'lgan mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish (yaratish) jarayonida namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlarining paydo bo'lishi natijasida natural xo'jalik davridagi iqtisodiy g'oyalar va mehnatga oid qarashlar yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Mazkur jarayonlar asosan XVI asrda Yevropada shakllangan merkantilizm ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalish vakillari – U. Stafford, G. Skaruffi, B. Divanzetti va T. Mannlar boylikni davlatning oltin, kumush va qimmatbaho buyumlarga egaligi bilan belgilaydi, unga esa mehnat orqali erishiladi, degan g'oyani ilgari surishgan.[2]

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi angliyalik olim Vilyam Petti (1623–1687) nomi bilan bog'liq. XVII asrda Angliyada manufakturaning o'sishi natijasida mehnat munosabatlari yangicha talqin qilindi. Bu davrda “yollanma mehnat” va “yollanma ishchi kuchi” tushunchalari joriy etilib, ular asosan yerlari tortib olingan va manufakturalarga jalb qilingan dehqonlar hamda hunarmandlarga nisbatan qo'llanilgan.

Fiziokratizm ta'limotining asoschisi, fransuz olimi Fransua Kene (1694–1774) iqtisodiyotga “sof mahsulot” tushunchasini kiritib, u faqat qishloq xo'jaligida, dehqonchilikda yaratiladi, degan fikrni ilgari suradi. Sof mahsulot nazariyasiga asoslangan holda F. Kene ishlovchilarni (jami ish bilan bandlarni) unumli va unumsiz sinflarga ajratadi.

Klassik iqtisodiy maktab ta'limotining rivojlanishida britaniyalik olimlar Adam Smit (1723–1790) va Devid Rikardo (1772–1823)ning hissasi beqiyosdir. A. Smitning tadqiqotlarining asosi inson manfaatlari va uning turmush darajasi masalalarini o'rganishdan iborat bo'lib, u iqtisodiy qarashlarini “Xalqlar boyligi” asarida ilgari surgan. Unga ko'ra, jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat orqali yaratiladi va mehnat barcha sohalarida boylikning asosi sifatida qaraladi. Smitning fikricha, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili – bu mehnat taqsimotidir.

Mehnatga oid ta'limotlarning zamonaviy ko'rinish olishi va takomillashuvida ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns (1884–1946)ning iqtisodiy g'oya va qarashlari muhim rol o'ynadi. U davlat aralashuvining zarurligini asoslab, ish bilan bandlik va iqtisodiy o'sishni faqat hokimiyatning iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali ta'minlash mumkin, deb ta'kidlagan. “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida Keyns to'la bandlikni soliq siyosati orqali ta'minlashni taklif etgan, shuningdek, ish haqi miqdorini pasaytirish orqali ishsizlikni kamaytirish mumkinligini ilgari surgan.

Mehnatga oid iqtisodiy ta'limotlar tarixi boy va murakkab bo'lib, turli iqtisodiy maktablarning rivojlanishi bilan shakllangan. Merkantilizm ta'limoti boylikni mehnat orqali oshirish zarurligini ilgari surgan bo'lsa, klassik iqtisodiy maktabda mehnat ishlab chiqarish jarayonining asosiy manbai sifatida qaralgan. Fransua Kene fiziokratizmga sof mahsulot va unumli ishchi kuchining o'rnini haqida fikr yuritgan, A. Smit esa mehnatni jamiyat boyligining asosiy manbai deb bilgan. Keynsning zamonaviy iqtisodiy qarashlari esa davlat aralashuvini iqtisodiy o'sish va to'la bandlikni ta'minlashning zaruriy omili sifatida ko'rsatgan. Ushbu adabiyotlar tahlili mehnat va iqtisodiy tizim o'rtasidagi o'zaro aloqani yanada chuqurlashtirib, mehnatning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini oydinlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-taqqoslov, statistik tahlil va qiyosiy yondashuv metodlari qo'llanildi. Empirik ma'lumotlar sifatida Jahon banki, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) hamda O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Mehnat migratsiyasi oqimlari, yoshlar va ayollar bandligi, ishsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyoti o'sib borish bilan bir qatorda barqarorlikni yo'qotmoqda, bu mehnat bozorlaridagi rivojlanishni sekinlashtirmoqda va ularning raqobatbardoshligini sinovdan o'tkazmoqda. Inflyatsiya 2023-yildagi 6,7 foizdan 2024-yilda 5,9 foizgacha pasaydi va o'rta muddatda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun sekinlashishi kutilmoqda (XVF 2024a). Bu xarid qobiliyati va iste'mol talabini tiklash uchun foydali bo'lsa-da, xizmatlardagi yuqori inflyatsiya deinflyatsiyani sekinlashtirmoqda (IMF 2024a). Global savdo YalMdan tezroq o'sishi kutilsa-da, ishlab chiqarish o'sishi sust va transchegaraviy savdo cheklovlarining kuchayishi sektorga qiyinchiliklar tug'dirmoqda (Gourinchas 2024). Ushbu tendensiyalar pandemiyadan keyin kuzatilgan mehnat bozorining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin.

1-jadval. 2014–2024-yillar oralig'ida ish kuchi ishtiroki darajasining jinsi va yoshi, dunyo va mamlakat daromadlari guruhlari bo'yicha o'zgarishi (foiz punktlari).[4]

Yosh guruhi / Jinsi	Toifa	Jahon	Past daromadli davlatlar	Quyi o'rta daromadli davlatlar	Yuqori o'rta daromadli davlatlar	Yuqori daromadli davlatlar
Jami	Erkak va ayol	-0,8	-4,3	1	-2,5	0,9
Yoshlar (15–24 yosh)	Erkak va ayol	-2,6	-5,2	-1,6	-4,3	2,1
Mehnatga layoqatli (25–54 yosh)	Erkak va ayol	0,5	-4,4	2,6	-0,2	2,2
Katta yoshdagilar (55–64 yosh)	Erkak va ayol	2,3	-4,2	0,7	1,8	7,2
65 yosh va undan katta	Erkak va ayol	0,9	-3,1	-1,5	0,8	2,3
Demografik siljish	Erkak va ayol	-1,2	0,4	-1	-2,1	-2,5
Jami	Ayollar	0,2	-5,3	3,2	-1,6	1,9
Yoshlar (15–24 yosh)	Ayollar	-1,5	-6,4	0,6	-3,7	2,6
Mehnatga layoqatli (25–54 yosh)	Ayollar	1,7	-5,3	5,2	1,3	4,1
Katta yoshdagilar (55–64 yosh)	Ayollar	3,5	-4,9	2,9	3	8,7
65 yosh va undan katta	Ayollar	1,6	-2,2	0,3	1,7	2,2
Demografik siljish	Ayollar	-1,5	0,3	-1,5	-2,7	-3,7
Jami	Erkaklar	-2	-3,3	-1,2	-3,5	-0,3
Yoshlar (15–24 yosh)	Erkaklar	-3,5	-4	-3,7	-4,9	1,8
Mehnatga layoqatli (25–54 yosh)	Erkaklar	-0,8	-3,5	0	-1,8	0,5
Katta yoshdagilar (55–64 yosh)	Erkaklar	0,9	-3,6	-1,6	0,3	5,5
65 yosh va undan katta	Erkaklar	-0,2	-4,2	-4,1	-0,4	2,3
Demografik siljish	Erkaklar	-1	0,5	-0,5	-1,5	-1,8

2014–2024-yillar oralig'ida dunyo miqyosida ish kuchi ishtiroki darajasida sezilarli tafovutlar kuzatildi. Umumiy holatda, global miqyosda bu ko'rsatkich 0,8 foiz punktga pasaygan. Ayniqsa, past daromadli mamlakatlarda 4,3 foiz punktga kamayish kuzatilib, bu guruh mehnat bozorining barqaror emasligini ko'rsatmoqda. Aksincha, quyi o'rta (+1,0 foiz) va yuqori daromadli (+0,9 foiz) mamlakatlarda ishtirok darajasida ijobiy o'sish qayd etilgan.

Yoshlar (15–24 yosh) orasida global miqyosda 2,6 foiz punkt pasayish mavjud bo'lib, ayniqsa past daromadli davlatlarda bu ko'rsatkich 5,2 foiz punktga yetgan. Biroq yuqori daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich +2,1 foiz punktni tashkil etib, ta'limdan ishga o'tishdagi ijobiy siljishlarni anglatadi.



Mehnatga layoqatli yoshlar (25–54 yosh) guruhida global o'sish +0,5 foiz punktni tashkil etdi. Bu o'sish, ayniqsa, quyi o'rta (+2,6 foiz) va yuqori daromadli (+2,2 foiz) mamlakatlarda sezilarli bo'lib, ishchi kuchining asosiy qismini aynan ushbu guruh tashkil etayotganini ko'rsatmoqda.

Katta yoshdagilar (55–64 yosh) orasida global miqyosda +2,3 foiz punkt o'sish qayd etilgan. Ayniqsa, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich +7,2 foiz punktga yetib, nafaqaga chiqish yoshining kechikayotgani yoki keksalar uchun ish imkoniyatlarining kengayayotganini anglatadi. 65 yosh va undan katta guruhda ham ijobiy dinamika mavjud bo'lib, global miqyosda bu yoshdagi ishchilar ulushi +0,9 foiz punktga oshgan.

Ayollar ishtirokida global o'sish +0,2 foiz punktni tashkil etdi. Ayniqsa, quyi o'rta daromadli (+3,2 foiz) va yuqori daromadli (+1,9 foiz) davlatlarda bu ko'rsatkich ijobiy holatda. Mehnatga layoqatli ayollar (25–54 yosh) guruhida global darajada +1,7 foiz o'sish, yuqori daromadli mamlakatlarda esa +4,1 foiz punktga o'sish qayd etilgan. Bu gender tengligi va ayollarni ishga jalb etish borasidagi sa'y-harakatlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Erkaklar ishtirokida esa aksincha, global miqyosda 2,0 foiz punktga pasayish kuzatilgan. Barcha daromad guruhlarida erkaklar ishtiroki kamaygan bo'lib, bu ayollarning mehnat bozoridagi ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Demografik siljishlar global miqyosda ish kuchi ishtirokiga 1,2 foiz punkt salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2,5 foiz punktga yetgan bo'lib, bu aholi tarkibining qarib borayotganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, 2014–2024-yillar davomida dunyo miqyosida ish kuchi ishtirokida ayollar va keksalar ulushi oshgan, erkaklar va yoshlar ulushi esa kamaygan. Bu holat global demografik o'zgarishlar, gender siyosati va iqtisodiy rivojlanish darajalarining mehnat bozori tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini aks ettiradi.

2025-yilda O'zbekistonda ishsizlikni kamaytirish va barqaror daromad manbalarini yaratish maqsadida 126 trillion so'm moliyaviy resurs ajratilib, 378 mingta mikro loyiha amalga oshirilmoqda. Bu esa minglab yangi ish o'rinlarini yaratmoqda.

2-jadval. O'zbekiston mehnat bozoridagi yoshlarga oid asosiy o'zgarishlar (2025-yil).

Yo'nalish	Amaldagi chora-tadbirlar	Ko'zlangan natijalar	Izoh
Moliyaviy resurslar safarbarligi	126 trln so'm ajratilishi, 378 ming mikroloyiha	Minglab yangi ish o'rinlari	Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish
Yoshlar bandligi	250 ming yoshga kredit ajratilishi	Yoshlar daromadli faoliyatga jalb qilinadi	Tibbiyot va sanoat tarmoqlari afzal
Texnik-ta'lim infratuzilmasi	8 ta muhandislik maktabiga qo'shimcha 17 tasi	Mehnat bozori talabiga mos kadrlar	Ilg'or texnik bilim va amaliy ko'nikmalar
Qishloq xo'jaligi bandligi	3 300 gektar yer ijaraga beriladi	Dehqonchilikda yoshlar soni oshadi	Foydalilik asosida yer ajratish
Xizmat ko'rsatish sohasi	Kichik loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Tezkor natijalar, ko'p ish o'rne	Yuqori moslashuvchanlik
Sanoat zonalarida tadbirkorlik	500 ming dollargacha imtiyozli kreditlar	Ishlab chiqarishni kengaytirish	Uskuna xaridi uchun ham kreditlar beriladi
Soliq rag'batlari	1% ijtimoiy soliq (3 yilga)	Norasmiy bandlik kamayadi	Kamida 3 mln so'm ish haqi to'lovchilarga
Qishloq yoshlari uchun imkoniyatlar	56 ming gektar yer, 153 ming dehqon	Daromad – 100 mln so'm va ko'proq	Raqobat asosidagi yondashuv
Agrar ta'lim va kooperatsiya	Maxsus o'quv tizimi va kooperatsiyalar	Hosildorlik va bandlik oshadi	Qishloq xo'jaligi samaradorligi kuchayadi

*Muallif tomonidan tayyorlandi

Yoshlar bandligi ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda, 250 ming nafar yoshga kreditlar ajratilishi ko'zda tutilgan. Muhandislik maktablari soni 25 taga yetkazilib, texnik kadrlar tayyorlanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi (jumladan, 3 300 gektar yer ajratilishi) va sanoat zonalarida tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar (500 ming dollargacha) ajratilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, uch yil davomida ijtimoiy soliq stavkasi 1% etib belgilanib, qonuniy ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, 2025-yilgi bandlik siyosati kompleks yondashuv asosida yoshlar daromadini oshirish va ishsizlikni kamaytirishga yo'naltirilgan.



3-jadval. O'zbekiston mehnat bozoridagi asosiy o'zgarishlar (2020–2025-yillar).

Ko'rsatkich	2020	2022	2024	2025 (reja)	Izoh
Aholi soni (mln)	34,0	35,6	36,7	~37,5	Yiliga o'rtacha 1 mln kishiga oshmoqda
Mehnatga layoqatli aholining ulushi (%)	59,7%	60,4%	61,0%	61,2%	Ishchi kuchi bazasi kengaymoqda
Band aholi soni (mln)	13,3	13,9	14,5	15,0	Barqaror o'sish sur'ati
Ishsizlik darajasi (%)	10,5%	9,6%	8,8%	7,9%	Har yili o'rtacha 0,7–1% ga kamaymoqda
Yoshlar bandligi (yoshlar soni mln / bandlar soni)	9,5 / 5,5	10,0 / 6,2	10,3 / 6,9	10,5 / 7,2	2025-yilda 250 ming yoshga kreditlar berilishi rejalashtirilgan
Ayollar bandligi (%)	45,3%	46,8%	48,3%	49,5%	Gender tengligi borasida sezilarli ijobiy siljish
Norasmiy bandlik (%)	48%	44%	40%	<38%	Soliq imtiyozlari va monitoring kuchaygan
Kasb-hunarga qayta o'qitilganlar soni (ming)	200	350	500	600+	TVET va muhandislik maktablari soni oshmoqda
Xizmatlar sektoridagi bandlik (%)	39%	42%	45%	46%	Tez natija beruvchi, eng yirik bandlik sohasi
Qishloq xo'jaligida bandlar soni (mln)	3,2	3,4	3,5	3,6	56 ming gektar yer – 153 ming yosh dehqon
Ajratilgan kredit hajmi (trln so'm)	15,0	27,0	38,0	126,0	2025-yilda 378 ming mikroloyiha uchun
Ajratilgan yer maydoni (yoshlar uchun, gektar)	–	12 000	56 000	59 300	2025-yilda yana 3 300 gektar qo'shiladi
O'rtacha ish haqi (ming so'm)	2 300	3 100	4 300	5 000+	Real daromadlar ortib bormoqda
Tadbirkorlik uchun kredit limiti (USD)	–	50 000	100 000	500 000	2025-yilda imtiyozli kreditlar hajmi keskin oshirilmoqda

*Muallif tomonidan tayyorlandi

2020–2025-yillar davomida O'zbekiston mehnat bozorida aholi soni, ishchi kuchi va bandlik barqaror o'smoqda. Ishsizlik darajasi pasayib, yoshlar va ayollar bandligi ortmoqda. Norasmiy bandlik kamayib, kasb-hunarga qayta o'qitish va xizmatlar sektoridagi bandlik o'sib bormoqda. O'rtacha ish haqi va tadbirkorlik uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar oshishi ish haqi va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirmoqda. 2025-yilda qo'shimcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar xalqaro mehnat migratsiyasi tendensiyalari O'zbekiston mehnat bozoriga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatdi. 2014–2024-yillarda global ishchi kuchida yoshlar ulushi kamayib, ayollar va katta yoshdagi bandlik oshgan. O'zbekistonda esa 2025-yilgacha bandlik barqaror o'sib, yoshlar va ayollar ishtirokida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Moliyaviy resurslar, texnik ta'lim va soliq imtiyozlari mehnat bozorini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

Aholini doimiy ish bilan ta'minlash maqsadida rasmiy davlat tashkilotlari muntazam ravishda tizimli o'zgarishlar olib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik siyosati kompleks va ijobiy yo'nalishga ega bo'lib, nafaqat ishsizlikni kamaytirishga, balki mehnat bozorining strukturaviy jihatdan modernizatsiyasiga ham xizmat qilmoqda.

Takliflar:

- texnik va kasbiy ta'limni mehnat bozori talabiga moslashtirish;
- ayollar bandligi uchun moslashuvchan ish shakllarini kengaytirish;
- mehnat migrantlari uchun huquqiy himoyani kuchaytirish;
- norasmiy bandlikni kamaytirishga qaratilgan rag'batlar berish;
- mehnat bozorini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini yaratish.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
2. Abdurahmonov K. *Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot*. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashr. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2019. – 544 b.
3. Shovdirov T.N., Sharipov Q.B. Ishchi kuchi migratsiyasining mamlakat milliy iqtisodiyotiga ta'sir etish omillari. *XXI asr: fan va ta'lim masalalari*, 1-son, 2019-yil.
4. World Employment and Social Outlook: Trends 2025. – 84-bet.
5. Shovdirov T.N., Sharipov Q.B. Ishchi kuchi migratsiyasining mamlakat milliy iqtisodiyotiga ta'sir etish omillari. *XXI asr: fan va ta'lim masalalari*, 1-son, 2019-yil.
6. Gourinchas P.-O. Global Economic Prospects and Labour Dynamics. *IMF Working Paper Series*, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi huzuridagi rasmiy ma'lumotlar portali. O'zbekiston Respublikasining bandlik statistikasi, 2020–2025-yillar.
8. Hasanov I. O'zbekistonda mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirish omillari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(10), 2023.
9. Nazarov D. Xalqaro mehnat migratsiyasi va iqtisodiy barqarorlik. *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 2(5), 2022.
10. Komilova M. Yoshlar bandligini oshirish siyosatining tahlili va takomillashtirish yo'llari. *Iqtisodiy islohotlar va tahlillar*, 3(6), 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
